

**ILMIY-TADQIQOT ISHLARIGA DAVLAT BUYURTMASI ASOSIDA ILMIY
LOYIHANI BAJARISH TO'G'RIDA
SHARTNOMASI
FZ-20200929344-son**

2022-yil 31-mart

Toshkent sh.

Innovatsion rivojlanish vazirligi (keyingi o'rinlarda – Buyurtmachi) nomidan nizom asosida ish yurituvchi vazir **Abduraxmonov Ibroxim Yulchiyevich** bir tarafdian, loyiha rahbari **Axunov Tal'at Axmatovich** ikkinchi tarafdian, **Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti** nomidan ustav asosida ish yurituvchi rektor **Madjidov Inom Urishevich** (keyingi o'rinlarda – Ijrochi) uchinchi tarafdian, Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Moliyalashtiruvchi) nomidan nizom asosida ish yurituvchi ijro etuvchi direktor **Oxunov Bunyodjon Ashurmatovich** to'rtinchi tarafdian, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-son qarori, Innovatsion rivojlanish vazirligi hay'atining 2022-yil 15-fevraldagi 5-son bayoniga hamda innovatsion rivojlanish vazirining 2022-yil 28-fevraldagi 56-son buyrug'iga muvofiq taraflar o'rtasida mazkur shartnoma tuzildi.

I. Shartnoma predmeti

1. Mazkur shartnoma bo'yicha Ijrochi va loyiha rahbari Buyurtmachining topshirig'iga binoan mazkur shartnomada belgilangan **Ustuvor gravitatsion linzalangan sistemalarda kechikish vaqtlarini va gravitatsion linzalash mexanizmlarini aniqlash** nomli *fundamental* loyihani bajarish va uning natijasini Buyurtmachiga shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish, Moliyalashtiruvchi esa moliyalashtirish majburiyatini oladi.

2. Loyiha bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar va ularni bajarish muddatlari hamda bajarilgan ishlar bo'yicha taqdim etiladigan hisobot shakllari ushbu shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan kalendar rejaga asosan belgilanadi.

II. Shartnomaning moliyaviy hajmi va moliyalashtirish tartibi

3. Moliyalashtiruvchi tarafidan loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi **1 732 825 000 (bir milliard yetti yuz o'ttiz ikki million sakkiz yuz yigirma besh ming)** so'mni tashkil etadi. Loyihani moliyalashtirish mazkur shartnomaning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.

4. Loyihaga ajratiladigan mablag'ning 95 foizi tadqiqot davri mobaynida, loyihani amalga oshirishda xarajatlarni qoplash uchun ajratiladi. Loyihaga ajratiladigan mablag'ning qolgan 5 foizi loyiha natijalari Buyurtmachi tarafidan qabul qilinganidan so'ng ajratiladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlariga muvofiq ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar miqdori oshirilganda Moliya vazirligi tomonidan

indeksatsiya mablag'i ajratilsa, loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi o'zgarishi mumkin.

III. Taraflarning huquq va majburiyatlari

6. Buyurtmachining huquqlari:

loyiha doirasida bajarilayotgan ishlarni va ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanayotganligini monitoring qilish, zarur hollarda joyiga chiqqan holda;

loyihani amalga oshirish natijalariga oid ma'lumotlarni, ilmiy va moliyaviy hisobotlarni Ijrochidan talab qilish;

Ijrochi va Loyiha rahbari bilan kelishilgan holda ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

Mazkur shartnoma shartlari Ijrochi va Loyiha rahbari tarafidan bajarilmaganda yoki tegishli darajada bajarilmaganda ushbu loyihani moliyalashtirishni to'xtatib turish yoki to'xtatish to'g'risida qaror (hay'at qarori, buyruq yoki ko'rsatma) qabul qilish, shuningdek, shartnomani bir tarafdama bekor qilish. Mazkir qarorga muvofiq Moliyalashtiruvchi tegishli choralarni amalga oshirishi shart.

7. Ijrochining huquqlari:

Buyurtmachidan loyihani ijrosiga oid barcha axborot va ma'lumotlarni so'rab olish; loyiha doirasida ajratilgan mablag'larni o'z muddatida moliyalashtirilishini talab qilish.

8. Loyiha rahbarining huquqlari:

Ijrochidan loyihani ijrosiga oid barcha zarur axborot va ma'lumotlarni so'rab olish; loyiha doirasidagi ishlarni bajarish uchun mablag'larni o'z vaqtida moliyalashtirilishini talab qilish.

9. Moliyalashtiruvchining huquqlari:

Ushbu shartnoma shartlari bajarilmaganda Buyurtmachining qarori (hay'at qarori, buyruq yoki ko'rsatma)ga ko'ra loyihani moliyalashtirishni to'xtatish va (yoki) to'xtatib turish.

10. Buyurtmachining majburiyatlari:

Ijrochi tarafidan taqdim etilgan shartnoma, xarajatlar smetasi va kalendar rejani ko'rib chiqish va kelishish;

mazkur shartnoma asosida, uning xarajatlar smetasiga mos ravishda loyihani moliyalashtirish to'g'risida qaror (hay'at qarori, buyruq yoki ko'rsatma) qabul qilish;

loyiha doirasida bajarilayotgan ishlarni va ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanayotganligini monitoring qilish, zarur hollarda joyiga chiqqan holda.

11. Ijrochining majburiyatlari:

kalendar rejaga muvofiq ishlarni bajarish va natijasini o'z muddatida Buyurtmachiga topshirish. Loyiha doirasida olingan natijalarni sinovdan o'tkazish va tijoratlashtirish (joriy qilish)ni ta'minlash;

loyiha doirasida yaratilgan tadqiqot natijalarini Web of Science va Scopusning ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda hamda boshqa nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilishini ta'minlash;

tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlarni olish;

bajarilgan ishlarda o'zining aybi bilan yo'l qo'yilgan, shartnomada nazarda tutilgan parametrlardan chekinishga olib kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni o'z kuchi bilan va o'z hisobidan bartaraf etish;

kutilayotgan natijalarni olish mumkin emasligi yoki ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda, bu haqida Buyurtmachini bir hafta muddatda xabardor qilish;

shartnoma asosida topshirilgan natijalarga uchinchi shaxslarda alohida huquqlar yo'qligi haqida buyurtmachiga kafolat berish;

loyihani sifatli va samarali bajarish uchun zarur bo'lgan ashyolar, asbob-uskunalar, qurilmalar, ishlab chiqarish maydonlari bilan ta'minlash va boshqa zarur sharoitlarni yaratish;

shartnomada ko'zda tutilgan mablag'lar va tovar-moddiy boyliklar hisobini yuritish va ularning maqsadli sarflanishini ta'minlash;

ilmiy-tadqiqot va moliyaviy hisobotlarni o'z vaqtida topshirishini ta'minlash;

Buyurtmachi tarafidan joyiga chiqqan holda loyihaning bajarilishi yuzasidan o'tkaziladigan monitoring uchun zarur sharoitlarni yaratib berish;

yuridik manzili va bank rekvizitlari o'zgartirganda taraflarni 10 kun ichida xabardor qilish;

loyiha doirasida ajratilgan budget mablag'larini xarajatlar smetasi asosida belgilangan tartibda va miqdorda maqsadli sarflanishini ta'minlash;

loyiha bo'yicha tayyorlangan hisobotlarning ishonchliligi va haqqoniyligi, avval bajarilmaganligi, ko'chirmachilik (plagiat)ka yo'l qo'yilmaganligi hamda tanlov mavzusi va shartlariga mosligiga javobgardir;

loyiha doirasida yaratilgan ilmiy faoliyat natijalari loyiha yakunlanganidan va (yoki) ular belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin tijoratlashtirilishi shart.

12. Loyiha rahbarining majburiyatlari:

shartnoma shartlarini va loyihani o'z muddatlarida sifatli va to'liq bajarish, moliyaviy mablag'lar va moddiy-texnik resurslarni maqsadli ishlatish;

shartnoma bo'yicha ishlarni to'liq hujjatlashtirish va o'z vaqtida ilmiy va moliyaviy hisobotlarni topshirish;

loyiha bo'yicha tayyorlangan hisobotlarning ishonchliligi va haqqoniyligi, avval bajarilmaganligi, ko'chirmachilik (plagiat)ka yo'l qo'yilmaganligi hamda tanlov mavzusi va shartlariga mosligiga javobgardir.

13. Moliyalashtiruvchining majburiyatlari:

Mazkur shartnoma bilan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan loyihani moliyalashtirish;

Buyurtmachining qarori (hay'at qarori, buyruq yoki ko'rsatma)ga asosan loyihani moliyalashtirishni to'xtatib turish va (yoki) to'xtatish.

IV. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

14. Mazkur shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarning natijasi, uning yakuniy hisobotlari Buyurtmachi tarafidan qabul qilib olinadi.

15. Ijrochi loyihani bajarish kalendar rejasiga asosan tayyorlangan yillik (oraliq) ilmiy hisobotni loyiha boshlangan kundan boshlab bir yil (12 oy) o'tgandan so'ng keyingi hisobot oyining 15 sanasiga qadar, yakuniy ilmiy hisobotni esa loyiha tugagandan keyingi hisobot oyining 15 sanasiga qadar Buyurtmachiga topshiradi. Agar ilmiy hisobot ko'rsatilgan muddatda Buyurtmachiga topshirilmasa ajratilgan mablag'ning 5 foizi Buyurtmachi qarori (hay'at qarori, buyruq yoki ko'rsatma)ga binoan Moliyalashtiruvchi tomonidan ushlab qolinadi.

Buyurtmachining qarori asosida Moliyalashtiruvchi loyiha uchun ajratilgan mablag'ning 5 foizini moliyalashtirishiradi.

16. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq choraklik, 6 oylik, 9 oylik va yillik moliyaviy hisobotlar Ijrochi tarafidan hisobot davridan keyingi oyning 10 sanasigacha topshiriladi.

17. Ish bosqichlarini qabul qilish jarayonida ushbu shartnomaning kalendar rejasida ko'rsatilgan talablariga mos kelmasligi aniqlansa, Ijrochi belgilangan ishlar hajmini o'z hisobidan kelishilgan muddatda to'liq bajarishga majbur.

18. Agar ishni bajarish jarayonida salbiy natija olish holati yoki ishni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, Ijrochi ishni to'xtatishi va bu haqida bir hafta muddatda Buyurtmachini rasmiy xabardor qilishi zarur. Ushbu hollarda taraflar ishni keyinchalik davom ettirish maqsadga muvofiq yoki nomuvofiqligi to'g'risida qaror (hay'at qarori, buyruq yoki ko'rsatma) qabul qiladilar.

19. Ijrochi tarafidan loyiha Buyurtmachi bilan kelishilgan kalendar reja doirasida bajarilmaganligi aniqlansa, oraliq bosqich hujjatlari va hisobotlar belgilangan talablar darajasida rasmiylashtirilmasa hamda o'z muddatlarida topshirilmasa, bunday holatlarda Buyurtmachi qarori (hay'at qarori, buyruq yoki ko'rsatma) bilan Moliyalashtiruvchi tarafidan moliyalashtirish to'xtatiladi va shartnoma bekor qilinadi.

V. Shartnoma shartlarini buzganlik uchun taraflarning javobgarligi

20. Ijrochi va Loyiha rahbari mazkur shartnoma shartlarini bajarmaganligi va (yoki) tegishli darajada bajarmaganligi uchun, agar shartnomaning buzilishida o'zining aybi yo'qligini isbot qilmasa, Buyurtmachining ishlar qiymati doirasida ko'rgan real zararini Ijrochi va Loyiha rahbari birgalikda qoplashi shart.

21. Ijrochi tarafidan shartnoma shartlari bajarilmagan holatlarda ishlar bajarilmagan va shartnoma shartlari buzilgan deb hisoblanadi. Ushbu holatda Moliyalashtiruvchi Buyurtmachining qarori (hay'at qarori, buyruq yoki ko'rsatma)ga asosan moliyalashtirishni to'xtatadi.

22. Shartnoma shartlari bajarilmagan hollarda taraflar ushbu shartnoma va O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari asosida javobgardir.

VI. Fors-major holatlari

23. Agar shartnoma majburiyatlari quyidagi holatlarning vujudga kelishi natijasida bajarilmagan bo'lsa, taraflarning birortasi ham o'ziga olgan majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi: suv bosish, yong'in, yer qimirlash va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek urush, harbiy harakatlar yoki shartnoma tuzilgandan keyin taraflarning nazoratidan tashqarida yengib bo'lmis kuch ta'sirida sodir bo'lgan holatlar. Bunda, ushbu shartnoma majburiyatlarini bajarish muddati bunday holatlarning harakatlanish davriga mos ravishda keyinga suriladi.

VII. Boshqa shartlar

24. Mazkur shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha Ijrochi va loyiha rahbari shartnoma shartlarini bajarish yuzasidan Buyurtmachi oldida solidar tarzda javobgar hisoblanadilar.

25. Ijrochi va Loyiha rahbari mazkur loyiha doirasida ishlab chiqilgan ishlanmalar, chop etilgan maqolalar, monografiyalar, ommaviy-axborot vositalaridagi ma'lumotlarda ishlar Buyurtmachi tarafidan moliyalashtirilgan loyihalar doirasida bajarilganligini qayd etishlari shart.

26. Loyiha doirasida huquqiy muhofaza qilinishi zarur bo'lgan ilmiy natija olinsa Loyiha rahbari bir hafta muddatda Ijrochiga bu haqida yozma xabar berishi lozim. Ijrochi ikki hafta muddatda o'zining ilmiy-texnikaviy kengashida xabarni ko'rib chiqib, intellektual mulk obyektni muhofaza qilish to'g'risida qaror qabul qiladi va Buyurtmachiga bu haqda axborot beradi. Shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida yaratilgan intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish Buyurtmachi bilan yozma ravishda oldindan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

27. Loyiha ijrochilari bilan tuziladigan mehnat shartnomasida qonunchilik hujjatlari hamda ushbu shartnoma shartlari asosida loyiha doirasida yaratiladigan intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilinishini ta'minlashga doir band kiritilishi lozim.

28. Loyiha doirasida yaratilgan intellektual mulk obyektlari uchinchi tomonga beriladigan bo'lsa, litsenzion kelishuv asosida berilishi va litsenzion kelishuvda texnologiya (ishlanma) muallif(lar)i, Ijrochi hamda uchinchi tomon o'rtasida foyda taqsimlanishi ko'rsatiladi.

29. Ushbu shartnoma bo'yicha loyihani bajarilishi uchun sotib olingan asbob-uskunalar, qurilmalar ish bajarilgandan so'ng Ijrochi balansida qoldiriladi. Moliya yilining oxirida har bir sotib olingan asbob-uskuna, qurilma va boshqalar bo'yicha moliyaviy xarajati ko'rsatilgan ro'yxat Buyurtmachiga taqdim etiladi.

30. Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki bekor qilish taraflarning kelishuviga binoan belgilangan tartibda yozma ravishda amalga oshiriladi.

31. Ushbu shartnomani bajarilishi jarayonida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar muzokaralar o'tkazish yo'li bilan hal qilinadi. O'zaro kelishuv ta'minlanmagan holda kelishmovchiliklar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilinadi.

32. Taraflarning ushbu shartnomada nazarda tutilmagan munosabatlari O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari asosida tartibga solinadi.

33. Shartnomaning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

34. Shartnoma bo'yicha loyihaning bajarilish muddati: 2022-yil 01-aprelda boshlanadi va 2027-yil 31-martda yakunlanadi.

Mazkur shartnoma taraflar o'rtasida imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo'ladi hamda taraflar o'z majburiyatlarini bajargunga qadar amalda bo'ladi.

35. Ushbu shartnoma shartnomaning har bir tarafı uchun teng yuridik kuchga ega bo'lgan to'rtta asl nusxada tuzildi. 1-nusxa Buyurtmachiga, 2-nusxa Ijrochiga, 3-nusxa Loyiha rahbariga va 4-nusxa Moliyalashtiruvchiga taqdim etiladi.

VIII. Taraflarning yuridik manzili va bank rekvizitlari

Buyurtmachi

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi
100174, Toshkent sh., Olmazor t., Universitet ko'chasi., 7 uy
Tel.: 71 256-47-80; 71 256-34-11
sh/h: 400110860262807014301254001
O'z.R. Moliya vazirligi G'aznachiligi
H/r № 23402 000 300 100 001 010
MB XKKM BB Toshkent sh.
STIR:201 122 919 MFO:00014
STIR:305 166 715 MFO:84111

Vazir



I. Abduraxmonov

Moliyalashtiruvchi

Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi
100174, Toshkent sh., Olmazor t., Universitet ko'chasi., 7-uy
Tel.: 71 203-17-00
sh/h: 302810860262737015401254002
O'z.R. Moliya vazirligi G'aznachiligi
H/r № 23402 000 300 100 001 010
MB XKKM BB Toshkent sh.
STIR:201 122 919 MFO:00014
STIR: 304 999 794

Ijro etuvchi direktor



B. Oxunov

Ijrochi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani., Universitet ko'chasi., 4-uy
Tel.: 71 227 12 24; 71 246 53 21
sh/r 100010860262807097300254002
O'z.R. Moliya vazirligi G'aznachiligi
H/r № 2340 2000 3001 0000 1010
MB XKKM BB Toshkent sh.
STIR:201 122 919 MFO:00014
STIR: 201 122 919 MFO: 85420

Rektor



I. Madjidov

Loyiha rahbari

Axunov T. Madjidovich
100002, Toshkent sh., Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 8-berk ko'cha, 43-uy
+998-94-675-52-87
STIR
489728142

Loyiha rahbari



T. Axunov